



## QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY VA ZAMONAVIY TALABLAR UYG'UNLIGI

**Axmadjanova Dildora Abbosxon qizi**

*Namangan Davlat Universiteti 2-kurs Pedagogika nazariyasi va tarixi  
yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qizlarni oilaviy xayotga tayyorlashda milliy va zamonaviy talablar uyg'unligi to'g'risida so'z yuritiladi. Maqola talabga ko'ra annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

**Kalit so'zlar:** oila, psixologiya, ijtimoiylashuv, muloqot, oilaga tayyorlov, milliylik, urf-odatlar, tafakkur, dunyoqarash, zamonaviylik

## СОЧЕТАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И СОВРЕМЕННЫХ ТРЕБОВАНИЙ В ПОДГОТОВКЕ ДЕВУШЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

**Ахмаджанова Дилдора Аббосхон кизи**

*Намангаснкого государственного университета, Магистрантка 2 курса  
теории и истории педагогики*

**Аннотация:** В данной статье говорится о гармонии национальных и современных требований в подготовке девушек к семейной жизни. Статья состоит из аннотации, ключевых слов, введения, основной части, заключения и списка литературы по мере необходимости.

**Ключевые слова:** семья, психология, социализация, общение, семейная подготовка, национальность, традиции, мышление, мировоззрение, современность.


## THE HARMONY OF NATIONAL AND MODERN REQUIREMENTS IN PREPARING GIRLS FOR THE LIFE

**Ahmadjanova Dildora daughter of Abboskhon**

*Namangan State University 2 nd year Master's student of pedagogical  
Theory and History*

**Annotation:** This article talks about the harmony of national and modern requirements in preparing girls for family life. The article consists of an Annotation, keyword, introduction, main body, conclusion and list of references as required.

**Key words:** family, psychology, socialization, communication, family preparation, nationality, traditions, thinking, world view, modernity





## KIRISH

Balog'at yoshiga qadam qo'ygan har bir qiz bola shirin orzulari daryosida oila degan kemani boshqarishni niyat qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu kichik, ammo ulkan yukni tortuvchi kemani boshqara olishiga qanchalik tayyorligiga o'zini ishonchi etadimi yoki yo'qmi eng asosiy masala ana shunda desak xato bo'lmaydi. Oilaga tayyorligiga o'z ishonchni baholashdan qiyin ish bo'lmasa kerak degan savolga ba'zi qizlarimiz "Ovqat tayyorlashni, pishiriqlarni pishirishni, kir yuvish, dazmol qilish, uylarni tozalash, mehmon kutish va qolaversa, uydagilarning qosh-qovog'iga qarashni bilsam bo'ldi, uyog'i bir gap bo'lar", deb o'ylasalar adashadilar. Qiz bola avvalom bor oilaga ruhan tayyor bo'lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi.

Milliy urf-odatlarimizga ko'ra ko'pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta'siri katta bo'ladi. Kuyov tomonidan sovichilar kelishadi, qarindoshlar o'rtaga tushishadi qarabsizki to'y bo'lib ketavermaydi-ku. Milliy qadriyatlarimizga ko'ra qiz bolani roziligi ham so'raladi. Yigit bilan qiz bola to'ydan oldin albatta, uchrashtiriladi. Qiz bola kuyovlikka da'vogar yigit bilan uchrashganda diqqat-e'tiborini jamlagan holda zimdan kuzatishi lozim bo'ladi.

Kuzatishi jarayonida o'z oldiga quyidagi savollarni qo'yishi kerak: Men shu yigit bilan qolgan hayotimni birga o'tkaza olamanmi? Uning injiqliklariga chidaymanmi? Bemor bo'lib qolganida dardiga sherik bo'lamanmi? Shu yigitning kiyimlarini yuvamanmi, degan savolarga "ha" deb javob bera olsa yigitga turmushga chiqishga rozilik berishi mumkin.

Turmush qurishga rozilik bergandan so'ng eng murakkab jarayon ya'ni o'zida ruhan oilaviy xayotga ishonchni shakllantirish boshlanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirishga vaqt qanchalik kam bo'lishiga qaramay aniq reja asosida ulgursa bo'ladi. Rejaga quyidagi qismlarni kiritish mumkin:

Birinchi qism – bo'lajak turmush o'rtog'ining xulq-atvorini o'rganish va unga dastlabki moslashuvni boshlash. Yigitga qanday muomala yoqadi? Nima yoqadi va nima yoqmaydi?

Ikkinchi qism — kuyovning oila a'zolarini umumiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar to'plash va ular bilan qanday munosabatga kirishiga fikran o'zini tayyorlash.

Uchinchi qism – yangi oilaga borib moslashishi jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'zi o'sib ulg'aygan oila a'zolaridan asta-sekin uzoqlashish. Shuni ta'kidlash joizki turmushga chiqqan qizlar ulg'aygan oilalariga nisbatan begonalashishni va uzoqlashishni tan olmasalar yangi oilalariga ko'nikib, moslashib ketishlari juda qiyin kechadi.

To'rtinchi qism — ruhiy niqobni tez vaziyatga qarab o'zgartira olishni o'rganish. Ya'ni ichidan zil ketib tursa ham tashqarisi kulib turishni o'rganish. Sal narsaga





arazlash, achchiqlanish, jahl qilishdan saqlanish umuman ruhiy holatini istasa-istamasa jilovlay olish sa'atini egallash.

Oila psixologiyasi bilan shug'ulanuvchi mutaxassislarning ta'kdlashlaricha, oila qurishga o'zida ishonchni shakilantirayotgan qizlar yuqoridagi rejani o'z sharoitlarini hisobga olgan holda yozma ravishda amalga oshirsalar ijobiy natijaga erishishlari onson kechadi.

Turmushga chiqayotgan qiz bola avvalom bor irodasini tarbiyalay olishi kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, iroda tarbiya va mashqqa muhtoj bo'ladi. Xalqimiz tili bilan aytadigan bo'lsak, oilaviy hayotda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiriladi. Oila sirini tashqariga chiqarmaslik oila mustahkamligining saqlashga harakat qilishda irodani axamiyati beqiyosdir desak xato bo'lmaydi.

Qiz bola turmush qurganidan so'ng uni ijtimoiy muhitdagi mavqe tubdan o'zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o'zini o'ziga bo'lgan munosati o'zgarishi tabiiy hol. Mazkur o'zgarishga nisbatan o'zida ishonchni shakllantira olga qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o'z o'rniga ega bo'la oladi. Yangi mavqega moslashish albatta, tajriba bilimlarga asoslanadi. Shuning uchun qiz bola o'zidan oldin kelinlik mavqeiga ega bo'lganlarni yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o'zi kelin bo'lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning shakl va vositalari.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab, uzoq muddatli hamda o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etuvchi faoliyat jarayoni bo'lib, mazkur jarayon quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi ijtimoiy oilaviy munosabatlar negizida amalga oshiriladi:

1. Oilaning moddiy ta'minotini yo'lga qo'yish (oila budjetini yaratish, oilaga tegishli shaxsiy xo'jalik (tomorqa hamda chorvachilik)ni barpo etish, undagi ishlarni yuritish, qo'shimcha daromad manbalari (xunarmandchilik, ijara dexqonchiligi yoki chorvachilikni tashkil etish)ni izlab topish, kasbiy faoliyatni olib borish va xokazolar).


2. Oila a'zolari (keksa, o'rta va yosh avlod vakillari) o'rtasida muoma la munosabatlarini yo'lga qo'yish.

3. Oilaviy xordiq (maishiy hamda ma'naviy mazmundagi)ni tashkil etish (bo'sh vaqt hamda ta'til davrlarini birgalikda o'tkazish).

4. Oilaviy tadbirlarni uyushtirish (tug'ilgan kun, beshik, sunnat, muchal, nikox, kumush va oltin to'ylar, turli o'quv yurtlarini tamomlaganlik, birinchi maoshni olganlik, xukumat mukofotlari bilan taqdirlanganlik, xizmat yoki ilmiysoxada muayyan yutuqqa (xususan, ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lganlik munosabati bilan tashkil etiluvchi tadbirlar, aza bilan bog'liq marosimlar).

5. Farzandlar tarbiyasini tashkil etish, ularga ilm va hunar sirlarini o'rgatish.

6. Oila a'zolarining ijtimoiy munosabatlar jarayoni (qo'ni qo'shni, qarindosh urug', hamkasb hamda do'stlar bilan ijtimoiy aloqani tashkil etish)dagi qatnashuvi.





Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan yana biri bu o'z-o'ziga yo'riqnoma berish ya'ni "Men albatta, yaxshi beka bo'la olaman", "Men oilani eplab keta olaman", "Men turmush o'rtog'imni baxtli qila olman", "Men baxtli bo'laman" deb kelajakka faqat yaxshi niyatlar bilan qarashi va kelajakka o'zini ishontira olishi uchun yuqoridagi iboralarni tez-tez takrorlab turishi lozim.

#### XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, sog'lom va farovon turmushni shakllantirishda oila bekasini rolini chuqur anglab etgan qiz bolagina ruhan oila qurishga tayyor bo'ladi. Shuning uchun turmush qurishdan oldin bir narsani o'ylab ko'ring. Er bosh bo'lsa ayol bo'yin, shu bo'yin boshni qayoqqa bursam bosh o'sha yoqqa qaraydi. Agar boshni to'g'ri tutib, kerakli tomonga yo'naltira olgan bo'yini duru gavharlar bilan bezashadi. Demak bir oilani sevimli bekasi, epli kelini bo'lish o'z qo'lingizda ekan, farovon turmush qura olishingizga avvalom bor o'zingizni ishontiring va ishoning. Shundagina siz baxtingiz sari ilk katta qadam tashlagan bo'lasiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.: Aspekt Press, 1999.- 376 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
6. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.
7. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.

